

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

MUSAEV ULUGBEK TOSHTEMIROVICH

**“XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTAR FAOLIYATINI TASHKIL
ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI”**

5340600 -“Moliya”- ta‘lim yo‘unalishi bo‘yicha

KURS ISHI

Ilmiy rahbar: N.Ismoilova

TOSHKENT - 2016

**Mavzu: Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tashkil etishni
takomillashtirish masalalari**

KIRISH

- 1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tashkil etishni nazariy asoslari**
- 2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini moliyaviy rejalashtirishni vazifalari**
- 3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar moliyaviy-iqtisodiy nazariya, byudjet siyosati va byudjetning huquq va majburiyatlarning bajarilishini ijtimoiy-iqtisodiy yaratuvchanlik ruhida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Davlatlarning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini avvalo uning iqtisodiyoti bilan bog'liq. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda aholi turmush darajasi, fan va texnika taraqqiyoti yuqori darajada bo'ladi, bu o'z navbatida mamlakatda amal qilayotgan bozor iqtisodiyoti tizimiga bog'liq. Moliya tizimi bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi

Dunyo mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda moliya tizimi bo'g'inlari turli mulkchilik shakllariga asoslangan holda tashkil etildi. Ularning har biriga bajarishi lozim bo'lgan funktsiya va vazifalar biriktirildi. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektning xo'jalik faoliyati jarayoniga ta'sir ko'rsatishning asosiy dastagi bo'lib xizmat qilib, amalda iqtisodiyotni boshqarishning hamma tomonlariga vositachilik qiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning bozor iqtisodiyotiga mos usullarini joriy etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, o'tish iqtisodiyotining rivojlanish bosqichida moliyaviy nochor korxonalarning paydo bo'lishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Ammo bugungi kunga kelib, makro va mikro iqtisodiyot darajasida ushbu korxonalarni qiyin iqtisodiy holatdan olib chiqish yoki inqirozli holat bilan bog'liq moliyaviy resurslarni samarali boshqarish uslublarini to'liq shakllanmaganligi ko'pgina xollarda milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi yirik korxonalarni inqiroziga sababchi bo'lmoqda.

Korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini ko'p ukkladli bo'lishi va tobora murakkablashib borishi moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni zamonaviy, bozor iqtisodi qonunlari asosida

boshqarishni talab etadi. Aks xolda ularning samaradorligi pasayadi va boshqaruv tizimini takomillashtirish ham ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Bunday holat o'z navbatida menejerlardan korxonalarni inqirozli holatlardan olib chiqishning yangi uslublarini va ko'nikmalarini professional darajada egallashlarini, olimlardan esa bu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy izlanishlarini jadallashtirish talab etiladi. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy resurslarni samarali boshqarilmasligi korxonalarni inqirozli xolatga olib kelish xavfi mavjuddir. Bunga xar-xil ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning tsiklik rivojlanishi, ob'ektiv va sub'ektiv jixatdan ta'sir o'tkazuvchi xolatlar o'rtasidagi munosabatlarni va insonlar manfaatlarining o'zgarib turishi sabab bo'la olishi mumkin. Shunday holatlar yuzaga kelmasligini oldini olish uchun ishlab chiqarish korxona boshqaruvchilari, o'z korxonalarini inqirozga yuz tutishini oldini olgan xolda, o'z faoliyatlarini zamonaviy talablar asosida amalga oshirishlari lozim. Shunisi bizga yaxshi ma'lumki korxonalar bozor iqtisodi sharoitida o'z ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini mavjud resurslar va imkoniyatlardan kelib chiqib tashkil etadi va boshqaradi.

Zero O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimiz sanoat korxonalari tomonidan o'tgan yili 160 dan ortiq turdagi yangi tovar va mahsulotlar, jumladan, mutlaqo yangi texnologik platforma negizida "Spark" engil avtomobilini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, katta hajmda yuk tashiydigan "Man" avtomobillarini, energiya tejaydigan lampalar, "ELJI" rusumidagi jahonga mashhur xolodilniklarni yig'ish, kaliy o'g'itlari va boshqa muhim mahsulotlarni ishlab chiqarish boshlab yuborildi.

Korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari mustahkamlanmoqda, bu jarayonga kichik korxonalar va xususiy biznes sub'ektlari tobora keng jalb

qilinmoqda”¹. Demak, O'zbekiston Respublikasi korxonalari muhim mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirmoqdalar va mahsulotlarni yangilamoqdalar. Bu albatta korxonalardan moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni talab etadi.

Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan moliyaviy resurslarni samarali boshqarish asosiy ko'rsatkichlarga aylanar ekan, korxonalar faoliyatida haqqoniy xo'jalik hisobi amalga oshirilishi lozim. Demak, korxonalar moliyaviy-iqtisodiy holatini yuksaltirishda moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning roli oshib boradi, bozor munosabatlari xo'jalik hisobi usulini inkor etmay, uni qabul qiladi va haqqoniy xo'jalik hisobini amalga oshiradi. Bozor munosabatlari davrida ko'p ukkladli bozor iqtisodiyoti shakllanar ekan, davlat ukkladida ham bozor munosabatlari keng foydalanilar ekan, korxona va tashkilotlarning mehnat va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlari tabiiy ravishda ortib boradi. Buning uchun korxona va tashkilotlar resurslarni samarali boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Chunki bozor munosabatlari davrida davlat tomonidan yordam doimo kamayib boradi. Korxonalar iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lib, o'zlarining faoliyatiga o'zlari javob berishadi. Shuning uchun ham korxona va tashkilotlar o'zlarining kerakli moliya holatiga ega bo'lishlari lozim. Korxonalarning moliyaviy holati o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini olib, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti ta'kidlaganlaridek, “Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materiallari qayta ishlab chiqarish, engil, oziq-ovqat

¹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. “Xalq so'zi” gazetasi. 2011 yil 22 yanvar.

sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirish oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishishning asosiy manbai bo'lishi darkor"²

Bundan ko'rinib turibdiki, korxonalarning moliyaviy holatini mustahkamlash ularning moliyaviy resurslardan foydalanish holatini va darajasini ifodalaydi. Bajarilgan vazifalar shuni ko'rsatayaptiki, moliyaviy holatni taxlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruv tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega.

² I. Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, Toshkent, "O'zbekiston", 2013 yil, 15-bet.

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tashkil etishni nazariy asoslari

XYUS larning moliyaviy resurslari ular resurslarining bir qismi bo'lib, bu resurslar pul shaklida amal qiladi. Resurslarning pul shaklida amal qilishi moliyaviy resurslar mohiyatan tavsifining ajralmas qismi hisoblanib, bu narsa ularni XYUS ning boshqa resurslari ko'rinishlaridan, xususan, ishlab chiqarish vositalari (dastgohlar, mashinalar, xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarishga mo'ljallangan binolar va shunga o'xshashlar)dan farq qiladi. Buni inobatga olgan holda XYUS vositalarining "pul shakli" va "pul qiymati" tushunchalarini farqlamoq lozim. "XYUS vositalarining pul qiymati" tushunchasi, odatda, pul mablag'larining o'zini emas, balki turli maqsadlar uchun mo'ljallanilgan vositalar va fondlar (masalan, asosiy fondlar)ning qiymat jihatidan baholanishini anglatadi.


Pulga sotib olinganligiga qaramasdan ishlab chiqarish vositalari dastgohlar, mashinalar, xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarishga mo'ljallangan binolar va shunga o'xshashlar) haqiqatda pul emas va pul hisoblanmaydi. Ishlab chiqarish fondlarini qaytadan pul shakliga aylantirish uchun, avvalo, ularni sotish kerak. Bu holda esa, o'z navbatida, mol-mulkning balansda aks ettirilgan qiymati baholari emas, balki haqiqiy bozor baholari harakatga tushadi. Moliya-viy qiyinchiliklar va bankrotlik xavfi ostida vujudga keladigan bunday vaziyatlar XYUSni yomon oqibatlariga, xususan, mablag'lar va resurslarni yo'qotib qo'yishiga olib kelishi mumkin. Holbuki, xalqaro amaliyotdagi ma'lumotlarga ko'ra, bankrotga uchragan XYUS tuga-tilayotgan paytda unga tegishli bo'lgan aktivlar qiymatining 40%dan ortiq bo'lmagan qismini olishga muvaffaq bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan hatto, sog'lom bozor aylanmasida, ya'ni talabga ega bo'lgan tayyor mahsulot realizatsiya qilinganda ham u faqat sotilganidan so'ng pul mablag'iga aylanadi.

Ishlab chiqarish jarayonini yangidan boshlash va rivojlantirishga mo'ljallangan XYUS ning moliyaviy resurslari bu—uning pul shaklidagi kapitalidir. Mehnat vositalari, predmetlari va natijalariga aylangan moddiy-buyumlashgan kapital, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining jismoniy va intellektual

qobiliyatlaridan iborat bo'lgan inson kapitali kapital mavjudligi va harakatining boshqa pulsiz shakllari hisoblanadi. Printsip jihatidan, takror ishlab chiqarish jarayonining doiraviy aylanishiga kiritilgan va uning egasiga daromad keltiruvchi har qanday mul-kiy va intellektual boylik kapital bo'lishi mumkin.

1- rasm

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy resurslari³



Bozor iqtisodiyotining xorijiy nazariyasi va amaliyotida pul tushumi yalpi daromad tarzida talqin qilinadi. Bu narsa XYUS moliyaviy resurslari fondini shakllantirish va qayta yangilashda tushumning umumlashtirilgan ahamiyatini

³ T. Malikov. Moliya: Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi. O'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya" 2008 yil 67-bet.

o'zida aniqroq aks ettiradi. Moddiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan pul tushumlarining bir qismi, XYuS ning real moliyaviy resursi mol etkazib beruvchilar va kontragentlarning hisobvaraqlariga o'tkazilmasdan, uning aylanmasida bo'lgan paytda qo'shimcha daromad keltiradi. O'tish davrining dastlabki yillaridagi o'zaro mol etkazib berish (xizmat ko'rsatish) bo'yicha noto'lovlar krizisi bank kreditlari foizining yuzdan oshgan darajasida tekin tijoriy kredit imkoniyatining mavjudligi o'zining "qo'lbola" birlamchi manbai bo'lib xizmat qildi. Shunga o'xshash narsa ish haqi fondiga nisbatan ham tegishli bo'ldi. Xodimlarga, ishchi va xizmatchilarga bir necha oylab oylik maoshlarni berishning kechikti-rilganligi (orqaga surilganligi) ba'zi bir "tadbirkor" va "bankir"larning tekinga boyish manbalaridan biriga aylandi, chunki to'lanmagan ish haqi ularning aylanmasida bo'lgan edi.

Amortizatsiya ajratmalari fondi XYuSlar moliyaviy resurslarining tarkibiy tuzilmasida muhim o'rin tutadi. Chunki bunday ajratmalar pul tushumlaridan qancha ajratilganligi va ularning XYuS tegishli hisobvaraqlarida joylashganligiga qarab XYuSlarning real moliyaviy resurslari hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi va tovar hamda moliya bozorlarida XYuS faoliyatining faollashuvi natijasida uning moliyaviy resurslari tarkibiy tuzilmasida foyda hal qiluvchi o'rinni egallay boshlaydi. Foyda XYuS o'z mablag'larining asosiy manbai bo'lib, ishlab chiqarish apparatining yangilanishini, sifatning yaxshilanishini, chiqarilayotgan mahsulot assortimentining kengayishini va h.k.larni ta'minlaydi. Foyda hisobidan XYuS ning rezerv fondlari, maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar shakllantiriladi.

Foyda massasi va normasi, uning xarajatlarga nisbati XYuS ning kreditga layoqatini va uning qarz mablag'larini jalb qilish imkoniyatini, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olishni aniqlab beradigan muhim indikatorlardir. Qarz mablag'larining XYuS o'z mablag'lariga nisbati $\frac{1}{3}$ va undan katta darajaga etib, uning to'lov layoqatiga kreditorlarda ham, hamkorlarda ham shubha tug'dirmasligi mumkin.


Joriy tijoriy XYuS larning moliyaviy resurslarini shakllanish manbalariga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

- mahsulot realizatsiyasining tushumi hisobidan shakllanadigan moliyaviy resurslar (foyda, amortizatsiya ajratmalari fondi, ish haqi fondi, moddiy xarajatlarni tiklash fondi);
- boshqa realizatsiya (mol-mulk, asosiy faoliyatga daxldor bo'lmagan xizmatlar va boshqalar) hisobidan olinadigan moliyaviy resurslar;
- moliyaviy bozorda shakllanadigan moliyaviy resurslar (kreditlar va zayomlar, o'z aksiyalari va qimmatli qog'ozlarning boshqa ko'rinishlarini sotish, boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va foizlar, sug'urta qoplamalari va boshqalar);
- kreditorlik qarzlari hisobidan tashkil topadigan moliya-viy resurslar (mol etkazib beruvchi va pudratchilarga; mehnat haqi bo'yicha; ijtimoiy sug'urtaga doir; byudjet oldidagi va boshqalar);
- badallar va maqsadli xarakterdagi tushumlar hisobidan shakllantiriladigan moliyaviy resurslar (boshqa tashkilotlar va jismoniy shaxslardan tushumlar, byudjet subsidiyalari va h.k.).

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar faoliyati davomida moliyaviy munosabatlarning to'g'ri tashkil etilishi qo'yilgan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda asosiy e'tiborni korxonalar moliyasini samarali tashkil etishga, korxonalar moliyasini boshqarishni to'g'ri tashkil etishga qaratish maqsadga muvofiq. Bunda esa, avvalambor, korxona moliyasining mohiyatini to'g'ri anglash lozim. Shundan kelib chiqqan holda quyida korxonalar moliyasi haqidagi qarashlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Yirik korxonalar moliyasi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish munosabati bilan xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyati ishtirokchilari o'rtasida ichki bozorda, shuningdek, davlatlararo darajada yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

Korxona moliyasida moliyaviy munosabatlar va pul fondlarining tutgan o'rn⁴



⁴ И.М. Карасева, М.А. Ревякина “Финансовый менеджмент”, М.: “Омега-Л”-2008год, стр. 21.

Korxonalarning davlat (xususan, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar) bilan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlari haqida fikr yuritilmagan. Vaholanki, korxonalar moliyasida davlat bilan yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar ham alohida o'ringa ega.

Umuman, korxona moliyasi – korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati davomida pul fondlarining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Bunda korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy munosabatlari davlat bilan, moliya-kredit tizimi bo'g'inlari bilan, boshqa iqtisodiy sub'ektlar bilan yuzaga keladi.

Korxona o'z faoliyatini boshlashda ya'ni faoliyatini yuritishda zarur bo'lgan mulkni sotib olishni hamda ishlab chiqarishni yuritishni moliyalashtiradigan asosiy manba bo'lib korxonaning ustav kapitali shaklida jamg'arilgan mulk egalari mablag'lari, korxonada belgilangan tartibda shakllangan boshqa kapitallar, hamda tasischilarning ishlab chiqarishni kengaytiri uchun qoldirgan foydalari hisoblanadi. Bu mablag'lar korxonaning o'z mablag'laridir. Bundan tashqari korxonalar faoliyatini moliyalashtirishda qarz mablag'lari, ya'ni boshqa moliya-kredit tashkilotlaridan, yuridik va jismoniy shaxslardan ma'lum bir muddatga qaytarish sharti bilan oladigan mablag'laridan ham foydalaniladi.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonalarning o'zaro moliyaviy munosabatlarga kirishishi pul fondlarining shakllanishi orqali amalga oshiriladi va bunda mol etkazib beruvchilar bilan (faoliyat uchun zarur bo'lgan tovar-moddiy zahiralar va xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha); pudratchilar bilan (qurilish-montaj, ta'mirlash va boshqa ishlarga to'lovlar bo'yicha); xaridorlar bilan (tovar va xizmatlar realizatsiyasi bo'yicha); davlat byudjeti va davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari bilan (solliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha); tijorat banklari bilan (kreditlar, pul mablag'larining saqlanishi, hisob operatsiyalariga to'lovlar bo'yicha); ishchi va xizmatchilar bilan (ish haqi va boshqa hisob-kitoblar bo'yicha) moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi.

Korporatsiyalar moliyasida yuzaga keladigan har bir moliyaviy munosabatni to'g'ri tashkil etish korxona tomonidan yuritiladigan moliyaviy siyosatni tashkil

etish holatiga bog'liq. Bunda moliyaviy siyosat – korxonaning ta'sis hujjati (ustavi)da aks etgan strategik va taktik maqsadlarga erishish uchun moliyadan maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanishni o'zida aks ettiradi. Masalan, tovar bozorida pozitsiyasini kuchaytirish; mos savdo, foyda va aktivlar hamda xususiy kapital rentabelligiga erishish; to'lovga layoqatlilikni va balans likvidligini saqlash (ta'minlash); mulkdorlar (aktsionerlar) boyligini oshirish va boshqalar.

Umuman, korporativ moliyaviy siyosatda quyidagilar nazarda tutiladi:

- iqtisodiy o'sish maqsadida foyda olish;
- kapital tarkibi va qiymatini optimallashtirish, korporativ tuzilmaning moliyaviy barqarorligi, amaliy va bozor aktivligini ta'minlash;
- mulkdorlar (aktsionerlar), investorlar va kreditorlar uchun korporativ tuzilmaning moliyaviy ochiqqligiga erishish;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasi, moliyaviy lizing, loyihaviy moliyalashtirish yordamida kapital jalb qilishning bozor mexanizmlaridan foydalanish;
- korporatsiya faoliyatining strategik maqsadlarini hisobga olgan holda moliyaviy holat diagnostiksi asosida korporativ moliyani boshqarish (moliyaviy menejment) mexanizmini ishlab chiqish;
- ustavda keltirilgan faoliyatni amalga oshirish va korporatsiyaning qarz majburiyatlarini qoplash uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantirish, pul oqimlari va moddiy zahiralarni balanslilikini ta'minlash.

Korporatsiya pul oqimlari va moddiy-ashyoviy zahiralarni o'rtasida balanslilikka erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- ustav kapitalini shakllantirish (pul ko'rinishida yoki moddiy ko'rinishda) va faoliyat uchun qo'shimcha mablag'larni (resurslarni) jalb qilishning eng ratsional usullari aniqlanadi;
- pul oqimlarini optimallashtirish imkonini beruvchi moliyaviy boshqaruv tashkiliy tuzilmasini shakllantiriladi;
- soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni optimallashtirish maqsadida hisob siyosati ishlab chiqiladi;

- kontragentlar bilan hisob-kitoblar usullari va muddati, jarimalar qo'llanilishi bilan bog'liq xo'jalik shartnomalari shart-sharoitlari aniqlanadi;
- xarajatlar, daromadlar, foyda va investitsiyalar javobgarlik markazlarini yaratish asosida byudjet boshqaruvi tizimi joriy qilinadi;
- markaziy kompaniya va uning filiallari o'rtasida pul oqimlari harakati hisobi va nazorati tashkil qilinadi.

Korporativ moliyani boshqarish tizimini ishlab chiqish jarayonida etarlicha pul mablag'lari va to'lovga layoqatlilikning yuqori darajasi sharoitida korporatsiyani rivojlantirish va mulkdorlar (aksionerlar) manfaatlarini uyg'unlashtirish muammosi paydo bo'ladi. Bunday sharoitda korporatsiya faoliyat davomiyligi va qo'yilgan maqsadlar tavsifidan kelib chiqqan holda moliyaviy strategik va taktik vazifalar qo'yiladi.

Korxonalar moliyaviy munosabatlari tarkibiga takror ishlab chiqarish katnashchilari urtasida vujudga keladigan kuyidagi pul munosabatlari kiradi:

1. Korxonalar tizimidagi turli mulk shakllariga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish va boshkarish shakllari urtasida turli pul fondlari va daromadlarning tashkil topishi, taksimlanishi va ishlatilishi yuzasidan munosabatlar: korxonalar ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishini ta'minlash va takror ishlab chiqarishdagi munosabatlar; korxona va uning xodimlari urtasidagi mexnatga xak tulash fondi shakllanishi, mukofot va ragbatlantirish fondlarini tashkil etish, ishlatish jarayonidagi munosabatlar xamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish uchun qimmatli qog'ozlar chiqarish bilan bog'liq operatsiyalar.

2. Korxonalar va ularning turli uyushmalari urtasidagi munosabatlar: markazlashgan pul fondlarining tashkil etilishi va ishlatilishi jarayonidagi pul munosabatlari; kapital kuyilmalar, kapital ta'mirlashni moliyalashtirish foydaning kayta taksimlanishi va boshka moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishi bilan bog'liq munosabatlar.

3. Korxonalar va davlat urtasidagi munosabatlar:

4. Korxonalar va tijorat banklari urtasidagi munosabatlar.

5. Korxonalar bilan korxonalar urtasida, korxonalar bilan axoli urtasida oldi-sotdi jarayonida xamda qimmatli qog'ozlar xarakati bilan bog'liq munosabatlar. Bu munosabatlar katoriga shu bilan birga korxonalar urtasida vujudga keladigan jarimalar, ustama to'lovlar xam kiradi.

6. Korxona va kasaba uyushmalari urtasidagi munosabatlar: ijtimoiy sugurtaga ajratmalar qilish jarayonidagi; korxona tomonidan yullanmalar sotib olish jarayonidagi munosabatlar.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan, korxonalar moliya munosabatlarining tarkibi xam yanada o'zgarib boradi. Shuning uchun korxonalar taraqqiyoti jarayonida uning moliyaviy faoliyati tarkibiy qismidagi o'zgarishlarni tabiiy bir xol sifatida karash lozim.

Korxonalar taraqqiyoti va moliya munosabatlarini takomillashtirish uzaro bog'liq muammolardandir. Iktisodiyotning turli mulk va xujalik yuritish shakllaridan keng foydalanishga utishi, xususiyl tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyoti bilan moliya munosabatlari xam bozor talablari asosida rivojlanishi uchun muxim turtki oldi. Shu bilan birga, moliya munosabatlari kichik biznes taraqqiyotini ragbatlantirishning muxim dastaklariga egadir. Bu narsa shu bilan bog'liqki, korxonalar tizimi ichida mukammal taksimot tizimining yaratilishi natijasida markazlashgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi orkali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining yanada mustaxkamlanishiga erishish xamda turli solik imtiyozlarining kullanilishi maksadida korxonalar kelgusi taraqqiyoti uchun kulay iktisodiy sharoitlar yaratiladi.

Shunday qilib, korxonalar taraqqiyoti amaldagi moliya munosabatlari tizimining kay darajada rivojlanganligiga bevosita bog'liq jarayondir. Bu erdagi asosiy muammo korxonalar taraqqiyoti darajasi va uning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida amal qilishi talablariga mos xolda moliyaviy menejment asoslarini to'g'ri tashkil eta olish xamda uning ta'sirchanligini ta'minlashdadir.

2.Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini moliyaviy rejalashtirishni vazifalari

Moliyaviy rejalashtirish –boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, korxona pul mablag'larni tashkil etish, taqsimlash, qayta taqsimlash va ishlatish jarayonlarini rejali boshqarishdir.

Moliyaviy rejalashtirish xalq xo'jaligini rejalashtirish kabi, iqtisodiyotning proporsional va balansli ravishda rivojlanishi, birlamchi xalq xo'jaligi kompleksining hamma bo'g'inlaridagi faoliyatlarni koordinatsiyalash, ijtimoiy ishlab chiqarishda yuksak sur'atlarni ta'minlash va xalqning moddiy farovonligining to'xtovsiz o'sib borishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Moliyaviy rejalashtirishni asosiy ob'ekti – *moliyaviy resurslar*dir. Ular jami ijtimoiy mahsulotning va milliy daromadning manbai bo'lib, ularning tarkibiga xalq xo'jaligining pul jamg'armalari, amortizatsiya ajratmalari, tashqi iqtisodiy aloqalardan tushadigan tushumlar va aholidan tushadigan daromadlar kiradi. Moliyaviy resurslarning tashkil topishi, taqsimlanishi va ishlatilishi kredit mablag'larning xarakati bilan, ishlash doirasi bir-biridan ajralishiga qaramay (ba'zan ular bir-birini to'ldira oladi va hattoki pul mablag'larini bir-biri bilan almashtira oladi), o'zaro bog'langan. Shuning uchun xalq xo'jalik tomonidan qarab chiqilganda moliyaviy rejalashtirish o'z ichiga kreditni rejalashtirishni ham oladi.

Moliyaviy rejalashtirishning asosiy maqsadi bo'lib – moliyaviy resurslar hajmining o'sishi va ularga bo'lgan ehtiyojlar ko'payishining mosligini ta'minlash; resurslarni tashkil topishi manbalarni ko'payishini mosligini ta'minlash; resurslarni tashkil topish manbalarni va shu manbalarni sarflashda konkret yo'nalishlarini aniqlash; halq xo'jalik sohalari va regionlar orasida ularning taqsimlanishini optimal va proporsional ravishda belgilash maydonga chiqadi.

“Rejalashtirish” tushunchasining ma'no-mazmunini yanada umumiyroq bo'lgan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirishning ob'ektiv zarurligi va imkoniyatini ang-latuvchi “rejalilik” orqali aniqlash mumkin.

Haqiqatan ham, rejalashtirish amaliyotda rejalilikni amalga oshirishni, ya'ni balanslilik va proportsionallikka erishish bo'yicha ongli faoliyat-ni bildiradi. Shu ma'noda, moliyaviy resurslarning balanslilikini va proportsionalligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatga moliyaviy rejalashtirish deyiladi.

Bunda balanslilik davlatning ixtiyorida bo'lgan moliyaviy resurslar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ixtiyorida qolgan daromadlar o'rtasidagi optimal nisbatni bildiradi. Proportsionallik esa korxonalar, xo'jalik tarmoqlari, mintaqalar va davlat sub'ektlari bo'yicha daromadlarning soliq to'languncha va soliq to'langandan keyingi miqdorlari o'rtasidagi oqilona nisbatdan iborat. Ana shu nisbatni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali davlat ularning rivojlanishini rag'batlantirish yoki cheklab qo'yishi mumkin.

Umumiy va oddiy ko'rinishda, moliyaviy rejalashtirish de-yilganda moliyaviy rejalarni tuzish va amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Moliyaviy rejani, xuddi uni ishlab chiqish, yaratish yoki tuzish jarayoni kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni ijodiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'zaro bog'lash tizimi sifatida qarash kerak. Amaliyotda tez-tez foydalaniladigan rejalashtirish ma'lumotlarini, masalan, korxona faoliyatining shakliy modeli-ni ishlab chiqish va shu asosda moliyaviy ko'rsatkichlarning rejali tizimini aniqlashni, moliyaviy rejalashtirishning ishchi sxemasi sifatida qarash mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, moliyaviy rejalashtirish jarayonida u yoki bu sub'ekt faoliyat ko'rsatishi moliyaviy ta'minlanishining hayotiyiligini oshiruvchi noshakliy omillar inobatga olinishi kerak.

“Moliyaviy rejalashtirish” tushunchasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- taraqqiyotning asosiy tendentsiyalarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish;
- jalb qilingan mablag'lar va vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirish menejmenti;
- firma ichidagi moliyaviy natijalar va pullarni rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish texnologiyasi;
- investitsion menejment;
- kapitallar menejmenti;

- faoliyatning boshqa ko'rinishlari (trast, faktoring, lizing va boshqalar).

Quyidagilar moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyatlarni kerakli bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;
- pul mablag'laridan iqtisod qilib, tejab-tergab foydalanish hisobidan korxonaning foydasini oshirish bo'yicha ichki re-zervlarni qidirib topish;
- kapitalni samarali joylashtirish yo'llarini aniqlash, undan oqilona va samarali foydalanishni baholash;
- kontragentlar bilan optimal moliyaviy munosabatlarni o'rnatish;
- korxonaning moliyaviy ahvoli, to'lovga qobilligi va kreditga layoqatliligi ustidan nazorat o'rnatish.

Bozor munosabatlariga o'tilganiga qadar moliyaviy rejalashtirishning mazmuni korxonalarda sof operativ vazifalarni – markazlashtirilgan iqtisodiyot amal qilganligi uchun etarli darajada formal bo'lgan korxonalarning besh yillik moliyaviy rejalaridagi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, istiqbolga mo'ljallangan rejalarining loyihasini baholash, korxonaning yillik moliyaviy rejalarini tuzish kabilarni hal etishga qaratilgan edi. Bunday amaliyotning hukm surganligi korxona moliyaviy xizmatlarining obro'siga obro' qo'shmas, chunki ularga hech narsa bog'liq emas edi. Bozor iqtisodiyotida moliyaviy xizmatlarning ahamiyati tubdan o'zgaradi. Ular korxona rivojlanishini faol va ta'sirchan boshqaradi va bir vaqtning o'zida, shu rivojlanishning yo'nalishi va sifatini nazorat qiladi.

Moliyaviy rejalashtirish dastlabki va jamlangan bo'lib, moliyaviy rejalarini tuzish va ijro etish orqali amalga oshiriladi.

Dastlabki rejalashtirishga korxonalarning, moddiy ishlab chiqarish tashkilotlarining, noishlab-chiqarish tashkilotlarining, xarajatlari to'liq yoki asosiy qismi davlat byudjeti yoki maxsus mablag'lar orqali qoplanadigan davlat muassasalarining rejalar kiradi.

Jamlangan moliyaviy rejalashtirish umumdavlat, tarmoq va territorial bo'ladi.

Hamma moliyaviy rejalar birlamchi tizimi davlat byudjeti orqali ta'minlanadi va davlatning asosiy moliyaviy rejasi deyiladi.

Byudjetni rejalashtirish deb – ma'lum bir rejali vaqt ichida moliyaviy resurslarning miqdori, umumdavlat maqsadlarini amalga oshirish uchun davlat byudjetiga kelib tushishini va sarflanishini aniqlaydigan jarayonga aytiladi.

Bir vaqt ichida davlat byudjet siyosatini o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq byudjet tizimini ayrim bo'g'inlari orasida taqsimlash va qayta taqsimlash ko'rsatkichlarini aniqlaydi.

Har bir byudjet xarajatlarining tarkibi ayrim davlat mahalliy hokimiyat organlari orasidagi davlat funktsiyalarini taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi, masalan: daromadlarning tarkibi va hajmi – davlat soliqlar tizimi va soliqlar siyosatiga xos xususiyatlar, hamda byudjetni tartibga solish tizimining xususiyatlari.

Rejalarni moliyalashtirishda asosiy o'rinni davlat orqali jamlangan moliyaviy balans – davlat byudjeti egallaydi. Unda bir-biri bilan moliyaviy-ashyoviy shaklida taqqoslab bo'lmaydigan hamma ijtimoiy ishlab chiqarishning mahsulotlari pul shaklida jamlanadi.

Balansli usul zarur bo'lgan hisobotlar orqali rejani real va balansli ekanligini tekshirib chiqishni, halq ho'jaligining rivojlanishiga kerakli umumiy iqtisodiy proportsiyalariga rioya qilishni, davlat byudjetini, tarmoqlar moliyaviy rejalarini, banklarni kredit va kassa rejalarini va umuman moliyaviy rejalar tizimini balans shartlari bilan ta'minlaydi.

Ijtimoiy sohalarning ko'pligiga, hozirgi zamonda bo'lib o'tayotgan o'zgarishlarning anchasi norma bo'lib qolgan va shundan kelib chiqqan holda rahbarlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib faoliyatlarini muvaffaqiyatiga ta'sir etadigan kutilgan va kutilmagan o'zgarishlarni bartaraf qilishdir. Bu o'zgarishlardan siyosiy o'zgarish, pulning qiymatini o'zgarishi, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Oxirgi yillarda bu o'zgarishlarni tezligi o'sib bormoqda va ular keskin, kutilmagan bo'lib qolmoqda. Omillarning o'zgarishini aniqlovchi ro'yxat etarli darajada bo'lib, har xil sharoitda o'zgarib boradi, shuning uchun u bilan

foydalanishga yagona ishlash usuli bo'lishi mumkin emas. Har bir korxona o'z faoliyatini iqtisodiy ahvolini har tomonlama tahlil qilib, afzalliklarini va kamchiliklarini namoyon etishi hamda sharoitini tushunishi uchun imkon qadar ko'p izlanib o'rganishi shart.

Bu tahlil natijasida o'zgarishlarning tuzilishini aniqlab va zarur bo'lsa ularga ta'sir etish mumkin. Bu ishda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri – korxona moliyaviy ahvoli o'zgarishlarining hisobotini ishlab chiqishdir.

Moliyadan boshqa hech qanday sohada bu hodisalar sezilarli darajada bo'lmagan va moliyaviy menejerlarni xavf-xatar va noaniqlik holatida qoldirmagan.

Havf-xatarlik aniqlanishini baholash va rejalash mumkin, lekin noaniqlikni baholash va rejalash mumkin emas. Moliyaviy menejerlar rejaning mezonlarini bir hil qilib olisholmaydi, chunki mezonlar sub'ektiv bo'lib, ularga ma'lum darajada tashqi sharoitlar ta'sir etadi. Ammo, rejalashtirish hech qachon to'liq havfsizlikda bo'lishligini ta'minlamaydi va inqirozning oldini olishga undaydi.

Hozirgi sharoitdagi moliyaviy rejalashtirish barcha zaruriy harakatlarni oldindan ko'zda tutishgina emas. Bu tegishli ishlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday kutilmagan holatlarni ko'ra olish qobiliyati hamdir. Al-batta, xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatidagi barcha risklarga barham bera olmaydi. Lekin u ana shu risklarni samarali oldin-dan ko'ra bilish yordamida boshqarish imkoniyatiga ega.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Korxonalarining moliyaviy faoliyati ularning davlat, boshqa korxonalar, tashkilotlar va shaxslar bilan o'zaro munosabatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan pul hisob-kitoblarini ifodalaydi.

Korxonalarining ish faoliyati uning moliyaviy holati bilan chambarchas bog'langanidir. Moliyaviy holat korxonaning har tomonlama faoliyatining

natijalarini aks ettiradi va rejada belgilangan ishlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir kichik korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'g'ri olib borilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan asosiysi foydadir.

Korxonalar foydasining turlari quyidagilardan iborat:

a) mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foyda (YaF). Bu sotishdan tushgan sof tushum (ST) va sotilgan mahsulotning tannarxi (MT) o'rtasidagi farqdan iborat, ya'ni

$$YaF = ST - MT;$$

b) asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan tushgan foyda (IChF). Bu ma'lum davr ichida mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foyda (YaF) va xarajatlar (Aharaj.) o'rtasidagi farq va plyus boshqa asosiy faoliyat sohalari daromadlari (Bdar.) yoki kamomadlari (Bkam.) ayirmasidan iborat, ya'ni:

$$IChF = YaF - Aharaj. + Bdar. - Bkam.;$$

v) umumiy xo'jalik faoliyatidagi foyda (UXF). Bu algebraik ifodalar yig'indisi tarzida ifodalanadi: asosiy faoliyatidagi foyda (AFF) plyus dividendlar (DD) va foizlar bo'yicha daromadlar (FD) plyus (yoki minus) chet el valyutalari bo'yicha operatsiyalaridan olingan daromadlar (yoki kamomadlar) (ChEV) plyus (yoki minus) qim-matbaho qog'ozlarni qayta baholashdagi daromadlar (yoki kamomadlar) (KKKB) minus foizlar bo'yicha xarajatlardan (FX) iborat, ya'ni:

$$UXF = AFF + DD + FD \pm ChEV \pm KKKB - FX;$$

g) soliq to'lovlarigacha bo'lgan foyda (SF). Bu ko'rsatkich ham algebraik ifodalar yig'indisi tarzida ifodalanib, umumiy xo'jalik faoliyatidagi foyda (UXF) va tasodifiy (ko'zda tutilmagan) foyda yoki kamomadlar (TFK) saldosidan iborat, ya'ni:

$$SF = UXF \pm TFK;$$

d) yillik sof foyda (YSF). Bu barcha soliqlarni to'lab bo'lgandan so'ng korxona hisobiga qoladigan daromad, ya'ni soliq to'lovlarigacha bo'lgan foydadan

(SF), daromad yoki foyda solig'ini (FS) hamda boshqa soliqlar yoki to'lovlarni (BS) olib tashlangandan keyin qolgan qismidir, ya'ni:

$$YSF = SF - FS - BS;$$

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini yuritishi davomida kelib chiqadigan xarajatlar o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasnif-lanadi:

Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi:

- a) to'g'ri va egri moddiy xarajatlar;
- b) to'g'ri va egri mehnat xarajatlari;
- v) boshqa to'g'ri va egri xarajatlar.

Ma'lum davrdagi xarajatlar:

- a) sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- b) boshqarish bilan bog'liq xarajatlar (ma'muriy xarajatlar);
- v) boshqa jarayonlar bilan bog'liq xarajatlar.

Moliyaviy faoliyat bilan bog'liq xarajatlar:

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) xorijiy valyutalar bilan bog'liq operatsiyalarda kurslarning salbiy farqi;
- v) qimmatbaho qog'ozlarni qayta baholash;
- g) moliyaviy faoliyat bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Tasodifiy xarajatlar (tabiiy ofatlar natijasida kelib chiqadigan xarajatlar).

Korxonalarning xo'jalik faoliyatining yuritishi davomida kelib tushadigan daromadlari o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlanadi va u hisobotlarda quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha aks etadi:

- sotishdan tushgan sof tushumlar;
- asosiy faoliyat sohalaridagi boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);
- moliyaviy faoliyat sohalaridagi daromadlar;
- tasodifiy daromadlar.

Sotishdan tushgan sof tushumlar – mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumlardan, qo'shimcha qiymat solig'i, aktsiz solig'i, eksport solig'i (sotib oluvchi tomonidan beriladigan ayrim skidkalar) va boshqa to'lov hamda ajratmalarni olib tashlagandan keyin qolgan qismi sifatida hisoblanadi.

Korxonalarning eksport faoliyati bilan bog'liq operatsiyalardan tushgan foyda va daromadlarni hisoblash, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumlar hajmini aniqlash kabi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Asosiy faoliyat sohalaridagi boshqa daromadlar (operatsion daromadlar) hisobot bo'limining «Boshqa daromadlar va tushumlar» moddasida ko'rsatiladi.

Ushbu daromadlarga:

- xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun turli xildagi sanksiyalar, jarimalar, penyalar, shuningdek, keltirilgan zarar va kamomadlarni qoplash;

- hisobot yilida, o'tgan yildagi daromadlar va foydalarni hisoblash natijasida topilgan summa;

- mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish yoki ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa daromadlar, ya'ni renta daromadlari, xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan tushgan daromadlar, korxona tizimidagi oshxonalar va kafelar hisobidan kelib tushadigan tushumlar;

- asosiy fondlar va korxonaning boshqa mol-mulklarining faoliyatidan kelib tushadigan moliyaviy daromadlar kiradi.

Moliyaviy faoliyat sohalaridagi daromadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- royalti (litsenziya bitimida ko'rsatilgan narsadan foydalanish huquqi uchun sotuvchiga vaqt-vaqti bilan pul o'tkazib turish) va transferta (egasining nomi yozilgan qimmatbaho qog'ozlarni bir kishi nomidan boshqa kishiga o'tkazish) kapitallarini to'plash;

- korxona tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlarning qim-matbaho qog'ozlarga qo'shgan ulushlaridan kelib tushadigan dividendlar hisobidagi daromadlar;

- valyuta schyotlari bo'yicha kurslar farqining ijobiy saldolari;

- sho''ba korxonalarning qimmatbaho qog'ozlarga sarflangan mab-lag'larini qayta baholash hisobidan kelib tushadigan foydalar va boshqalar.

Tasodifiy foyda yoki daromadlar – xo'jalik faoliyatini yurgizish davomida ko'zda tutilmagan tasodiflar, hodisalar, e'tiborga olinmagan jarayonlar va voqealar tufayli vujudga keladigan daromadlardir. Bularga, asosiy faoliyat yurgizish

davomida ifodalangan hisobotlarda aks etgan boshqa daromadlar bo'limi moddasidagi daromadlar kiritilmaydi.

Korxona uchun investitsion qarorlar qabul qilish juda qiyin vazifa hisoblanadi. Bunda asosiy mezon korxona qiymatlarini oshirish mezonlariga qaratiladi. Uning omillari bo'lib korxona daromatlari o'sishi, moliyaviy risk yoki ishlab chiqarish harajatlarning kamayishi, korxona ishlari samaradorligi darajasini oshirish hisoblanadi.

Real investitsiya loyihalari bo'yicha bunday natijalarga erishish uchun, har qanday loyihaning samaradorligini baholash zarur bo'ladi. Shunday qilib investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki loyihaning samaradorligini baholash darajasidan qo'yilgan kapitalning qaytib kelish muddati, korxonaning rivojlanish sur'ati hamda boshqa ijtimoiy- iqtisodiy muommalarni hal qilish imkonini beradi.

Mulkiy javobgarlik, mulk shaklidan qat'iy nazar, faqat korxonaning o'z mablag'lariga quyilishi mumkin. O'z mablag'larning mikdori buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan aniqlanadi.

1-jadval

Grand Milk Product” MChJ Moliyaviy natijalarning tarkibi va dinamik o’zgarishlarining tahlili⁵

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishlari(+,-)	
	Summa ming so'm	Soliq to'langun-gacha bo'lgan foydaga nisbatan salmog'i, %	Summa ming so'm	Soliq to'langun-gacha bo'lgan foydaga nisbatan salmog'i, %	Summadagi	Salmo-g'idagi
1. Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda	41587,9	178,32	115560	135,14	73972,1	-43,18
2.Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar	18265,7	78,32	30046	35,14	11780,3	-43,18
3.Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	23322,2	100,0	85514	100	62191,8	-
4.Umumxo'jalik faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	23322,2	100	85514	100	62191,8	-
5.Daromad solig'I to'langunga qadar foyda (zarar)	23322	100	85514	100	62192	-
6.Daromad (foyda)dan soliq va soliq va boshqa soliqlar	2827	12,12	11151	13,04	8324	0,92
7. Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar	20495	87,88	74363	86,96	53868	-0,92

⁵ “Grand Milk Product” MCHJ ma'lumotlari asosida tayorlandi

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish-bu keng ko'rsatkichlar yordamida korxonaning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.


Quyida "Grand Milk Product" MChJ ni moliyaviy tahlil qilib quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

"Grand Milk Product" MChJ mahsulotlar sotishdan tushgan foyda yil boshida 41587 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib, 115560 ming so'mni tashkil qilgan. Hisobot davridagi sof foyda 53868 ming so'mni tashkil qilgan.

Yuqoridagi sof foyda o'sishining chalq'ituvchi xususiyati shundaki, korxonaning joriy yilga olgan foydasi joriy yilda sotilgan mahsulotlar hajmiga nisbatan past ko'rsatkichni ifodalagan. Buni rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkin

3-rasm

"Grand Milk Product" MCHJ 2015 yildagi sof foydasining o'zgarishi tahlili⁶



⁶ "Grand Milk Product" MCHJ ma'lumotlari asosida tayorlandi

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes korxonasining sof foydasi yilning boshiga nisbatan yilning oxirida 60 foizga o'sgan.

Ushbu kichik korxonaning mahsulot sotish va foyda ko'rish rentabelligi sof foydadan kelib chiqqan holda yuqori ko'rsatkichga ega.

Respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan barcha soha korxonalarining foyda ko'rish maqsadida, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi yoki xizmat ko'rsatishini talab etadi.

Respublikaning iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishida muhim omil-makroiqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga mamlakatda faoliyat yuritayotgan har bir korxonaning muvaffaqiyatga erishishidir.

Xo'jalik faoliyatini yuritish davomida korxonalar o'z mablag'lari darajasini aniqlashi va nazorat qilishi muhim o'rin tutadi. Chunki mulkiy javobgarlik, tuzilgan kontraktlar va shartnomalar asosida kelib chiqadigan o'zaro kelishmovchiliklar yoki muammolar mana shu mulkka bo'lgan egalik huquqlari bo'yicha kafolatlanadi.

XULOSA

Kurs ishining nixoyasida quyidagi xulosa kiritishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

Birinchidan, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini o'sishiga, boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga, korxona moliyaviy-iqtisodiy holatini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Moliyaviy natijalarning samaradorligini ta'minlangan, korxona moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilashga erishilgan bo'ladi.

Ikkinchidan, respublikamizda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish ko'rsatkichlariga, asosiy vositalardan foydalanish darajasining pastligi, debitor-kreditor qarzdorlikning oshib borayotganligi kabi iqtisodiy omillar o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Korxona rahbariyati va menejmentlarining asosiy vazifalari ushbu omillarning oldini olishga va salbiy ta'sirini kamaytirish uchun tadbirlar ishlab chiqib amaliyotga tadbiiq etishdan iborat xisoblanadi.

Uchinchidan, moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda korporativ boshqarish tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq keladi deb hisoblaymiz.

Turtinchidan, ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda, aylanma mablag'larni samarali boshqarishning roli benihoya kattadir.

Beshinchidan, ishlab chiqarish zahiralarida ko'pdan turib qolgan, keragi bo'lmagan xom-ashyolar va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, iste'molchilar talabiga javab bermaydigan, korxona omborida to'planib qolgan tayyor mahsulotlarni moliyaviy resurslarni tashkil etuvchi elementlar xisobidan chiqarish, kuchli raqobat bozorida tez pulga aylanadigan yuqori elementlardan tashkil topadigan moliyaviy resurslar tarkibini yaratish xisoblanadi.

Oltinchidan, xorijiy mamlakatlarda moliyaviy resurslarni samarali boshqarilishida mulkning xususiyligi katta rol o'ynaydi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan jarayonlardan bittasi mulkni davlat tasarrufidan

chiqarish jarayonlari tez muddatlarda tugatilishi zaruriy chora tadbirlardan biri hisoblanadi. Shu jarayon amalga oshishi orqali moliyaviy resurslarni samarali boshqarishni amalga oshirish mumkin.

Etinchidan, mahsulot tannarxini hisoblashda faqat shu mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlari hisobga olinadi. Mahsulotni sotish va ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq umumkorxona harajatlari mahsulot tannarxiga kiritilmay davr harajatlariga hisobiga kiritiladi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda hisoblash ob'ektlarini bilish muximdir. Unga qilingan harajatlarni alohida hisobga olish mumkin bo'lmaganligidan, umumiy ishlab chiqarish harajatlarini hisoblash ob'ektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash muhimdir.

Iqtisodiy hisob-kitoblarda mahsulot tannarxini rejalashtirish va hisoblashda harajatlarni hisoblash moddalari bo'yicha guruhlash qabul qilingan. Keyingi yillarda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinadigan resurslar hamda xizmat ko'rsatish korxonalari ish va xizmatlari narxlarining tez suratlar bilan oshib borganligi mahsulotlar tannarxining ham qimmatlashib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu vaziyat aksariyat hollarda korxonalar etishtirayotgan mahsulotlarni zarar bilan sotishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun, kuchli raqobatga asoslangan munosabatlar sharoitida korxonalar oldida mahsulot tannarxini har tomonlama pasaytirish yo'llarini izlab topish vazifasi turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2003 y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risi»dagi qonun. 1991-2006 yillar.
3. «Xususiy korxonalar to'g'risi»dagi qonun. 2003 yil.
4. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risi»dagi qonun. 2000 yil 25 may.
5. Vazirlar Maxkamasining 2003 yil avgustdagi «Past rentabelli zarar ko'rib ishlayotgan iqtisodiy nochor davlat korxonalarini va ob'ektlarini xususiylashtirishni jadallashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
6. Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 10 sentyabrdagi 366 sonli «Kichik korxonalar, dexqon fermer xo'jaliklarini mablag' Bilan tag'minlash moddiy texnik ta'minlash ularga bojxona imtiyozlarini berish bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida. 2008 yil 19 noyabr, F-4010-son.

- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.
- 12.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Xalq so'zi" gazetasi. 22 yanvar 2011 yil.
- 13.Karimov I.A. 2012 yil. Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent.: "O'zbekiston" 2012 yil 6-30 betlar.
- 14.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Toshkent.: "O'zbekiston" 2013 yil 6-25-betlar.
- 15.I.A.Karimovning «2012 yil. Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma, TDIU, 2010 y.13-85-betlar.
- 16.I.A.Karimovning «Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish.» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma, T.: "O'qituvchi" NMIU, 2013 y. 15-80-betlar.
- 17.Xodiev B.Yu, Kosimova M.S., Samadov A.N Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. –T.: TDIU, 2010.
- 18.Kosimova M.S. , Yusupov M.A., Ergashxadjaeva Sh.J. Marketing. T.: TDIU, 2010.
- 19.Samadov A,N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
- 20.Qosimova M.S., Samadov A,N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005.
- 21.Qosimova M.S., Xodiev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 2003.
- 22.Vahobov A.V. Malikov T.S. Moliya. Darslik. "Iqtisod-moliya" 2011yil 50-68-betlar.

23.Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda: o'quv qo'llanma.-
Toshkent Iqtisod-moliya 2010 yil 29-47-betlar.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumati sayti
2. www.stat.ru - O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi sayti
3. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining sayti
4. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti